
2021-yil jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni
moliyalashtirishga yo`naltirilgan mablag`lar xisoboti to`g`risida



XALQ DEPUTATLARI BESHARIQ TUMANI KENGASHI QARORI

Beshariq tumani, Oltin vodiy ko'chasi 160-uy tel (73) 612-20-08

2022 - yil 24 - fevral

VI-54-19-11-153-K/22

Beshariq tumani hokimligi

2021-yil jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo' naltirilgan mablag'lar xisoboti to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagi "Budget ma'lumotlarining ochiqqligini va budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-sonli hamda 2021-yil 13-apreldagi "Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli qarorlariga asosan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qarori va shu bo'yicha xalq deputatlari tuman Kengashining 2021-yil 5-maydagi "Maxalliy budget mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi № VI- XXXV/178-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 27,29-bandlari ijrosini taminlash maqsadida xalq deputatlari tuman Kengashi

Qaror qiladi:

1. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2021-yil 5-maydagi "Mahalliy byudjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi № VI- XXXV/178-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27-bandiga asosan 2021-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo' naltirilgan mablag'lar yuzasidan tuman hokimligi Moliya bo'limi mudiri (v.v.b A.Egamnazarov) ning xisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2021-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo' naltirilgan mablag'lar, ya'ni tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotlar va tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumot 1-ilovaga asosan;

2021-yilda o'tkazilgan tashabbusli byudjet jarayoni yakunlariga ko'ra ishlarni amalga oshirish uchun ajratilgan mablag'lar bilan shartnomalarga muvofiq yakuniy mablag'larga nisbatan bo'shab qolgan (iqtisod qilingan) qismini jamg'armaga qayta tiklash miqdori to'g'risida ma'lumot 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi moliya bo'limi (v.v.b A.Egamnazarov) hamda tuman G'aznachilik bo'linmasi (Sh.Xayitov)lar shartnomalarga muvofiq yakuniy mablag'larga nisbatan bo'shab qolgan (iqtisod qilingan) qismini jamg'armaga belgilangan tartibda qayta tiklash va tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotlarni tuman axborot xizmati (F.Zokirov) bilan birgalikda keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda "Ochiq budget" axborot portali xamda tumanning rasmiy veb-saytlariga jo'ylashtirish hamda xar chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar jo'ylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Maxalliy budget, iqtisodiy

1

e-qaror.gov.uz

22.04.2022

islohatlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (B.Abdusaidov), ijrosini taminlash tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari T.Samatov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



R.K.Jo'raev

2022-04-22 16:31:14